

9-sinf I chorak 1-BSB
(Ixtisoslashtirilgan maktablar uchun)
Topshiriqli diktant

BSB bo'yicha o'quvchiga qo'yiladigan talablar:

- Diktantda berilgan matnni imlo qoidalariga asosida yozishi;
- Matnni tinish belgilariga rioya qilgan holda yozishi;
- Diktant matnini husnixat asosida yoza olishi;
- Matn asosida berilgan topshiriqlarni to'g'ri bajara olishi talab etiladi.

Diktant matni

Tilni bilgan elni biladi

Nutq eng katta boylikdir. Inson nutqi gapira olishi bilan ulug'dir. Barcha asrlarda xalqlarni bir-biriga bog'laydigan, yaqinlashtiradigan asosiy vosita til bo'lgan. Ayrim tillar hatto xalqlar o'rtasida ko'prik vazifasini o'tagan. Shuning uchun "Til bilgan – el biladi" deydilar.

Hikoya qilishlaricha, kunlardan bir kun ulug' vazir va shoir Alisher Navoiy Samarqand shahrida bir-biri bilan tortishib savdo qilayotgan ikki insonga duch kelib qolibdi. Ular bir-biriga baqirar, biri "se" desa, ikkinchisi "uch" derdi. Atrofdagi odamlar esa "Narxini tushirma" deb, ularni yanada urishtirar edi. Navoiy ularning oldiga yaqin keldi va har ikkoviga o'z tilida gapirib tushuntirdi. "Ey odamlar! Axir ikkovingiz ham bir xil narxni aytyapsiz-ku. Tojik tilidagi "se" o'zbek tilidagi "uch" degani-ku!". Barcha odamlar xaxolab kulib yuborishibdi. Shuning uchun odamlar hamisha bir-birini tushunishi, ahil va inoq yashashi uchun bir-birlarining tillarini o'rganishga harakat qilib keladilar. Boshqa tillarni bilish har bir bilimli kishining ko'rkidir.

(134 so'z)

I. Topshiriqli diktant 25 ball

Diktantni baholash mezonlari		1 ta	2-3 ta	4-5 ta	6-7 ta
Imlo xatolari	10 ball	10 ball	8-9 ball	7-6 ball	5-3 ball
Tinish belgilari	3 ball	3 ball	2 ball	1ball	0 ball
Husnixat	2 ball				
Husnixat aniq va ravon, tushunarli bo'lsa	2				
Husnixat biroz noaniq, harflar qiyshaygan bo'lsa, ravon o'qish biroz qiyin bo'lsa	1 ball				

Diktant jami:	15				
	ball				

Topshiriq uchun: 10 ball

1-BSB bo'yicha amaliy topshiriqlar:

Diktant matni yuzasidan topshiriqlar. (Har bir to'g'ri bajarilgan topshiriq uchun 2 b)

1. Matndagi oxirgi gapni gap bo'laklari bo'yicha tahlil qiling.
2. Matndan 1 ta uyushiq bo'lakli gapni ajratib yozing.
3. Matn mazmuniga mos 2 ta maqol yoki hikmatli gap yozing.
4. Matndan undalmali gapni aniqlab yozing.
5. Quyidagi gap tarkibidagi so'z birikmalarini ajratib yozing.

Boshqa tillarni bilish har bir bilimli kishining ko'rkidir.